



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 155-161 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich

TDIU mustaqil izlanuvchisi, TDSHI o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda omonatlar va depozit siyosatining o'рни hamda samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Maqolada banklarning resurs bazasini kengaytirish, depozit portfelini diversifikatsiya qilish, foiz siyosatini takomillashtirish va mijozlar ishonchini mustahkamlash yo'llari ilmiy-amaliy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, depozitlarning bank likvidligi, rentabelligi va barqaror rivojlanishiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, omonatlar, depozit siyosati, moliyaviy xizmatlar, samaradorlik ko'rsatkichlari, likvidlik, rentabellik, diversifikatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и эффективность депозитной политики коммерческих банков в развитии финансовых услуг. Проведен анализ показателей эффективности вкладов и депозитов, а также их влияния на ликвидность, прибыльность и устойчивость банковской системы. Особое внимание уделено вопросам диверсификации депозитного портфеля, совершенствованию процентной политики и укреплению доверия клиентов.

Ключевые слова: Коммерческие банки, вклады, депозиты, депозитная политика, финансовые услуги, ликвидность, прибыльность, эффективность.

Abstract: This article examines the role and efficiency of deposit policy in the development of financial services in commercial banks. The analysis focuses on the effectiveness indicators of deposits and savings, as well as their impact on banks' liquidity, profitability, and financial stability. Special attention is paid to deposit portfolio diversification, interest rate management, and strengthening customer confidence through digital banking services.

Keywords: Commercial banks, deposits, savings, deposit policy, financial services, efficiency indicators, liquidity, profitability, diversification.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, moliyaviy xizmatlar sifati va ommabopligi sezilarli darajada oshmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan omonat va depozit mahsulotlari hajmi, ularning turlari hamda xizmat ko'rsatish shakllari kengayib bormoqda. Biroq, bu jarayonda depozitlarning samaradorligini ta'minlash, ularning tarkibini diversifikatsiya qilish va barqaror resurs bazasini shakllantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tijorat banklarining barqaror faoliyati ko'p jihatdan depozit bazasining hajmi, sifati va tuzilmasiga bog'liq. Depozitlar nafaqat banklarning asosiy moliyaviy manbasi, balki

iqtisodiyotdagi investitsion faollikni ta'minlovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, banklar omonatchilarni jalb etish strategiyasini takomillashtirish, foiz siyosatini bozor sharoitlariga moslashtirish, mijozlar ishonchini oshirish va xizmatlarni raqamlashtirish orqali depozit samaradorligini oshirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda bank tizimidagi jami omonatlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 18–20 foizga o'sdi, biroq ularning 60 foizdan ortig'ini qisqa muddatli depozitlar tashkil etmoqda. Bu esa banklarning uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini cheklab, resurslar barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, tijorat banklari uchun depozit siyosatini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda innovatsion jamg'arma mahsulotlarini keng joriy etish strategik zaruratga aylanmoqda.

Metod va metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish jarayonini tizimli tahlil qilish, omonatlar va depozit siyosati samaradorligini baholash hamda raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda **nazariy, empirik va statistik yondashuvlar** uyg'un qo'llanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Zamonaviy bankchilik nazariyasida bir qancha taniqli olimlar tijorat banklari moliyaviy xizmatlarini har xil nuqtai nazardan o'rganib, muhim hissa qo'shganlar. Peter S. Rose o'zining "Commercial Bank Management" asarida bank xizmatlarini an'anaviy va zamonaviy turlarga ajratgan holda tahlil qiladi. U kredit berish, depozit jalb qilish va to'lov xizmatlarini an'anaviy xizmatlar sifatida ko'rib chiqadi. Rose ta'kidlashicha, zamonaviy bozor sharoitida banklar o'z xizmatlarini diversifikatsiya qilishlari, ya'ni turli xil moliyaviy mahsulotlar taklif etishlari zarur. U bank xizmatlarining samaradorligini baholashda xizmat sifati, mijozlar qoniqish darajasi, foyda rentabelligi va bozor ulushi kabi ko'rsatkichlarni ishlab chiqqan [1].


Frederic S. Mishkin esa "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" kitobida banklarning iqtisodiyotdagi rolini moliyaviy vositachilik nazariyasi orqali tushuntiradi. Uning fikricha, banklar zaxiraga ega bo'lgan sub'ektlardan mablag' jalb qilib, uni mablag'ga muhtoj bo'lgan sub'ektlarga yo'naltiradi va asimmetrik axborot muammosini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Mishkin banklarni likvidlik yaratuvchi, to'lov tizimini ta'minlovchi va resurslarni samarali taqsimlashda noyob imkoniyatlarga ega institutlar sifatida ko'rib chiqadi [2].

Joseph F. Sinkey Jr. "Commercial Bank Financial Management" asarida bank xizmatlarini moliyaviy menejment kontekstida o'rganadi. U bank xizmatlarini to'rt asosiy guruhga ajratadi: kredit, depozit, investitsiya va maslahat xizmatlari. Sinkey risk-menejmentni bank xizmatlari bilan bog'lab, har bir xizmat turining o'ziga xos xavf-xatarlarini muvozanatlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasida mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv, ya'ni har bir mijoz guruhining ehtiyojlarini tushunish va ularga moslashtirilgan mahsulotlar taklif etish zamonaviy bankchilikning asosi hisoblanadi [3].

Natija va muhokama.

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari — bu bank tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan pul-kredit, hisob-kitob, investitsiya va maslahat ko'rinishidagi xizmatlar majmuasidir. Ushbu xizmatlar orqali banklar iqtisodiyotda pul resurslarining aylanishini

ta'minlaydi, moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi va jamiyatdagi ortiqcha mablag'larni investitsion yo'nalishlarga yo'naltiradi. Moliyaviy xizmatlar tizimi bank faoliyatining eng dinamik sohasi bo'lib, u iqtisodiy o'sish, kapital harakati va raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda bu xizmatlar tarkibida **depozit operatsiyalari, kreditlash, to'lov tizimlari, valyuta operatsiyalari, investitsion va raqamli xizmatlar** asosiy o'rinni egallaydi.



1-rasm. Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarning asosiy tamoyillari¹.

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy xizmatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish muayyan iqtisodiy tamoyillarga tayanadi. 1-rasmda ushbu tamoyillar o'zaro uzviy bog'liq holda tasvirlangan bo'lib, ular bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi, mijozlar ishonchini mustahkamlash va xizmatlar sifatini oshirishning nazariy asosini tashkil etadi. Avvalo, barqarorlik tamoyili moliyaviy xizmatlarning izchil va uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bu tamoyil bank resurslarining muvozanatli boshqarilishini, uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish imkonini va iqtisodiy beqarorlik davrida ham moliyaviy tizimning mustahkamligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, likvidlik tamoyili bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini anglatadi. U bankning to'lovga layoqatlilik darajasini saqlab turish va mijoz oldidagi ishonchni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Diagrammada ko'rsatilgan raqobatbardoshlik tamoyili esa moliyaviy xizmatlar bozorida bankning ustun mavqeini saqlab qolish, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsion mahsulotlarni joriy etish orqali mijozlar bazasini kengaytirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda, mijozga yo'naltirilganlik tamoyili bank faoliyatining markazida aynan mijoz ehtiyojlari turishini anglatadi. Bu tamoyil xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish, individual yondashuvni kuchaytirish va mijozlar ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Moliyaviy xizmatlarning zamonaviy bosqichida raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuv

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

tamoyili alohida o'rin tutadi. U raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, onlayn banking va fintex yechimlari yordamida xizmatlarni tezkor, shaffof va qulay shaklda taqdim etishni nazarda tutadi. Bu jarayon banklar uchun nafaqat texnologik yangilanish, balki raqobat ustunligini yaratish omili sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, rentabellik tamoyili bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishini talab etadi. Bank har bir xizmat turidan maqsadli daromad olish, xarajatlarni optimallashtirish va kapitallashuv darajasini oshirish orqali o'zining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Tamoyillar tizimida xavfsizlik va ishonchlilik elementi ham muhim o'rin egallaydi. Bu tamoyil mijoz mablag'larini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va operatsion xatarlardan saqlanish orqali bank tizimiga bo'lgan ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari tizimi ularning amaliy faoliyatining markaziy qismidir. Bu xizmatlar iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning aylanishini ta'minlash, kapitalni samarali taqsimlash va mijozlarga qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Birinchidan, banklar depozit operatsiyalarini kengaytirish orqali aholining va korxonalarning bo'sh mablag'larini jalb etib, o'z resurs bazasini mustahkamlaydi. Bu jarayon iqtisodiy o'sish va investitsion faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, kredit operatsiyalarini takomillashtirish ishlab chiqarish va tadbirkorlikni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bank faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi — hisob-kitob va to'lov xizmatlarini rivojlantirish bo'lib, u raqamli texnologiyalar yordamida tezkor va xavfsiz to'lov tizimlarini joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, valyuta, investitsiya va sug'urta xizmatlarini kengaytirish banklarga mijozlarga kompleks moliyaviy yechimlar taklif etish imkonini beradi.

Moliyaviy xizmatlar samaradorligini ta'minlashda resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega. Banklar likvidlik, foydalilik va xavfsizlik o'rtasida muvozanatni saqlash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va raqamli bank tizimini rivojlantirish – bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish va ularni zamonaviylashtirishning muhim omilidir.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar² (mlrd so'm)

Omonat	2020	2021	2022	2023	2024
Jismoniy shaxs	329887	526265	671363	989269	1306079
Yuridik shaxs	1908710	2764834	3067361	3492424	4301142
Jami	2238597	3291099	3738724	4481692	5607221

Quyidagi jadval ma'lumotlari tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining hozirgi holatini aniq ko'rsatib bermoqda. Jadvalda 2020–2024 yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar omonatlari ko'rsatkichlari (mlrd so'mda) keltirilgan.

² <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?year=2025> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

So'nggi besh yillik dinamikani tahlil qilganda, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlarning hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2020 yilda jami depozitlar 2 238,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 5 607,2 mlrd so'mga yetgan, ya'ni besh yil ichida qariyb 2,5 baravar oshgan. Bu esa banklarning moliyaviy xizmatlar sifati, ishonchliligi va mijozlar sonining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslar omonatlari bo'yicha o'sish ayniqsa faol kechgan. Agar 2020 yilda ularning hajmi 329,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 1306,1 mlrd so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich jismoniy shaxslar ishonchining ortib borayotganini, aholining bank tizimidan foydalanish darajasi – ya'ni moliyaviy inklyuziya oshayotganini ko'rsatadi. Yuridik shaxslar depozitlari esa umumiy omonatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ularning hajmi 2020 yildagi 1908,7 mlrd so'mdan 2024 yilda 4301,1 mlrd so'mga oshgan. Bu holat korxona va tashkilotlar tomonidan bank tizimidan faol foydalanilayotganini, ularning naqd pulsiz hisob-kitoblarga o'tishi kuchayganini bildiradi.

Umuman olganda, mazkur davrda tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining hozirgi holati barqaror rivojlanish bosqichida ekanini ko'rish mumkin. Depozitlarning izchil o'sishi banklarning resurs bazasini kengaytirib, kreditlash imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu bilan birga, aholi va tadbirkorlik subyektlarining omonatlarga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib, raqamli bank xizmatlarining kengayishi bilan bank tizimi yanada samarali ishlamoqda.

Shunday qilib, 2020–2024 yillar oralig'idagi depozitlar hajmining sezilarli o'sishi tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining faollashuvi, raqamlashtirilishi va mijozlar bilan ishlash strategiyalarining takomillashuvi natijasi sifatida baholanishi mumkin. Bu jarayon O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi rolini yanada kuchaytirgan.

2-jadval

QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va hajmi³

Yillar	Transaksiyalar soni (dona)	Transaksiyalar hajmi (mln, so'mda)
2020-yil	8643	2457
2021-yil	20590	15204
2022-yil	27444	137663
2023-yil	107653	337317
2024-yil	187234	495187

Keltirilgan jadvalda 2020–2024 yillar oralig'ida QR-online tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va hajmi dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan tijorat banklarining onlayn to'lov infratuzilmasi qanchalik tez sur'atlarda rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda QR tizimi orqali atigi 8 643 dona tranzaksiya amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 2,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu davr QR-to'lovlar joriy etilishining boshlang'ich bosqichi bo'lganini bildiradi. 2021 yilda esa tranzaksiyalar soni 20 590 taga, hajmi esa 15,2 mlrd so'mga yetib, bir yil ichida qariyb olti

³ <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/> Markaziy bank ma'lumotlari.

baravar o'sish qayd etilgan. Keyingi yillarda QR-onlayn tizimining qo'llanilishi keskin kengaygan. 2022 yilda tranzaksiyalar soni 27444 donaga, hajmi esa 137,7 mlrd so'mga oshgan bo'lib, bu raqamlar bank xizmatlarining raqamli segmentiga o'tish jarayoni jadallashganini ko'rsatadi. 2023 yilda esa o'sish ayniqsa sezilarli bo'lgan — tranzaksiyalar soni 107 ming donadan oshib, hajmi 337,3 mlrd so'mga yetgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2024 yilda kuzatilgan: QR-online tizimida 187234 dona tranzaksiya amalga oshirilib, ularning umumiy hajmi 495,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu 2020 yilga nisbatan tranzaksiyalar soni bo'yicha 21 baravar, hajmi bo'yicha esa 200 martadan ortiq o'sishni anglatadi. Mazkur o'sish dinamikasi O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarida raqamli transformatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. QR-to'lovlar tizimi mijozlar uchun qulay, tezkor va xavfsiz to'lov vositasi sifatida ommalashib bormoqda. Banklarning raqamli mahsulotlari sonining ortishi, mobil banking ilovalari funksionalligining kengayishi va internet tarmog'ining qamrovi oshgani natijasida moliyaviy xizmatlarning ko'lami ham sezilarli kengaydi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi, xususan QR-online to'lov tizimining joriy etilishi, so'nggi yillarda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Tranzaksiyalar soni va hajmining keskin o'sishi aholi va tadbirkorlik subyektlari orasida raqamli to'lov vositalariga ishonch ortayotganini, moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulayligi oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu jarayon bilan bir qatorda tizimda haligacha bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish raqamli bank xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Birinchidan, axborot xavfsizligi va kiberxavf tahdidlari sohasida muammolar saqlanib qolmoqda. QR tizimlarining kengayishi bilan birga firibgarlik, soxta to'lov havolalari va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash holatlari xavfi ortmoqda. Shu sababli, banklar uchun zamonaviy kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish, tranzaksiya autentifikatsiyasini kuchaytirish va mijozlarni xabardor qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, ayrim hududlarda raqamli infratuzilma va internet tarmog'i sifati pastligi QR-to'lovlarning keng qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu ayniqsa qishloq joylarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, davlat va tijorat banklari hamkorligida raqamli infratuzilmani kengaytirish, internet tezligini oshirish va terminallar sonini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligi yetarli darajada emas. Ko'plab foydalanuvchilar mobil ilovalar, QR-kodlar va onlayn to'lovlar mexanizmini to'liq tushunmaydi. Bu esa tizimning samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, aholini raqamli moliyaviy xizmatlar bo'yicha o'qitish, banklar tomonidan axborot kampaniyalarini kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

To'rtinchidan, ayrim banklarda raqamli xizmatlarni integratsiya qilish darajasi past, ya'ni QR tizimi bilan boshqa to'lov platformalari o'rtasida muvofiqlashtirish yetarli emas. Bu mijozlar uchun qulaylikni kamaytiradi va tranzaksiya tezligini pasaytiradi. Shuning uchun, banklararo integratsiyani kuchaytirish, yagona to'lov infratuzilmasini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, texnik xizmat ko'rsatish sifati va mijozlarga qo'llab-quvvatlash tizimi ham ko'plab hollarda yetarli darajada emas. Tranzaksiya xatolari,

kechikishlar yoki texnik nosozliklarga tezkor javob berilmasligi foydalanuvchi ishonchini pasaytiradi. Bu borada banklar uchun tezkor texnik yordam markazlarini tashkil etish, xizmat monitoringini avtomatlashtirish va “real-time” tahlil tizimlarini joriy etish samarali yechim bo’ladi. Umuman olganda, QR-online tizimi O’zbekiston bank tizimida moliyaviy xizmatlarning raqamli bosqichga o’tishida muhim qadam bo’lib xizmat qilmoqda. Biroq bu tizimning yanada samarali ishlashi uchun xavfsizlik, infratuzilma, savodxonlik va integratsiya yo’nalishlarida islohotlarni chuqurlashtirish talab etiladi. Ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish natijasida tijorat banklarining raqamli moliyaviy xizmatlari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh darajaga ko’tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Rose, P.S., Hudgins, S.C. (2013). *Bank Management & Financial Services*. 9th Edition. McGraw-Hill Education. New York.
2. Mishkin, F.S. (2018). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th Edition. Pearson Education. New York.
3. Sinkey, J.F. (2002). *Commercial Bank Financial Management in the Financial Services Industry*. 6th Edition. Prentice Hall. New Jersey.
4. Saunders, A., Cornett, M.M. (2020). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. 10th Edition. McGraw-Hill Education. New York.
5. www.cbu.uz

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

